

HUDUDIIY INVESTITSIIYA MEXANIZMLARINI BAHOLASHNING INTEGRAL, GIS VA EKONOMETRIK METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

University of Business and Science
i.f.f.d., PhD., dotsent,

Annotatsiya

Tadqiqotda hududiy investitsiya mexanizmlarini baholashning integral, GIS va ekonometrik yondashuvlarini yagona metodologik tizimda birlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Namangan viloyatining 2020-2024-yillardagi panel ma'lumotlari asosida yettita indikator normalizatsiya qilinib, integral investitsion faollik indeksi hisoblandi va hududlar GIS-klasterlash orqali guruhlandi. Pooled OLS modeli yordamida investitsiyalar hajmi bilan tashqi kapital, eksport va kichik biznes faolligi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik aniqlandi. Natijalar hududlar o'rtasidagi investitsion tafovutlarni ko'rsatdi hamda faollik darajasiga mos differensial boshqaruv choralarini shakllantirish zarurligini asoslab berdi. Taklif etilgan metodologiya resurslarni manzilli taqsimlash, investitsiya dasturlarini monitoring qilish va hududiy boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslanganligini oshirishga xizmat qilgani ko'rsatildi. Bu yondashuv hududiy investitsiya siyosatining aniqligi va amaliy samaradorligini kuchaytirgani qayd etildi.

Kalit so'zlar: hududiy investitsiya, integral indeks, GIS-klasterlash, ekonometrik model, Pooled OLS, investitsion faollik, hududiy differensiatsiya, investitsiya siyosati.

Аннотация

В исследовании были проанализированы возможности объединения интегрального, ГИС- и эконометрического подходов к оценке региональных инвестиционных механизмов в единую методологическую систему. На основе панельных данных Наманганской области за 2020-2024 годы семь показателей были нормализованы, рассчитан интегральный индекс инвестиционной активности и проведена ГИС-кластеризация территорий. С помощью модели Pooled OLS была выявлена положительная связь объема инвестиций с внешним капиталом, экспортом и активностью малого бизнеса. Результаты показали территориальную дифференциацию инвестиционной активности и обосновали необходимость дифференцированных управленческих мер. Предложенная методология способствовала адресному распределению ресурсов, мониторингу инвестиционных программ и повышению обоснованности региональных управленческих решений. Такой подход также повысил точность территориальной инвестиционной политики и практическую результативность принимаемых решений.

Ключевые слова: региональные инвестиции, интегральный индекс, ГИС-кластеризация, эконометрическая модель, Pooled OLS, инвестиционная активность, территориальная дифференциация, инвестиционная политика.

Abstract

The study examined the possibility of integrating composite-index, GIS, and econometric approaches into a unified methodology for assessing regional investment mechanisms. Using panel data for Namangan Region for 2020-2024, seven indicators were normalized, a composite investment activity index was calculated, and territories were grouped through GIS-based clustering. A Pooled OLS model identified positive associations between investment volume and foreign capital, exports, and small-business activity. The results revealed substantial territorial differences in investment activity and supported differentiated management measures. The proposed methodology was shown to improve targeted resource allocation, investment-program monitoring, and the evidence base for regional management decisions and policy effectiveness.

Keywords: regional investment, composite index, GIS clustering, econometric model, Pooled OLS, investment activity, territorial differentiation, investment policy.

KIRISH

Hududlarni barqaror rivojlantirishda investitsiya resurslarini jalb etish bilan bir qatorda ularning hududiy taqsimoti, iqtisodiy natijadorligi va ishlab chiqarish salohiyati bilan uyg'unligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar hajmining mutlaq o'sishi hududning investitsion rivojlanganligini to'liq ifodalamaydi; investitsiya oqimlarining aholi soni, sanoat bazasi, eksport salohiyati, tadbirkorlik muhiti va tashqi kapitalni jalb etish imkoniyatlari bilan bog'liqligi ham baholanishi zarur.

UNCTADning so'nggi investitsiya hisobotlarida xalqaro kapital oqimlarining o'zgaruvchanligi va real investitsiya faolligining hududlar hamda mamlakatlar bo'yicha notekisligi qayd etiladi [1]. OECD yondashuvlarida esa investitsiya siyosati faqat kapital hajmiga emas, balki uning unumdorlik, innovatsiya, bandlik va barqaror rivojlanishga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirilishi ta'kidlanadi [2]. Mazkur yondashuvlar hududiy darajada investitsion faollikni ko'p mezonli baholash zaruratini kuchaytiradi.

Amaliyotda hududiy investitsion faollik ko'pincha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yoki uning o'sish sur'ati bilan baholanadi. Biroq bitta ko'rsatkich hududning investitsion holatini kompleks aks ettira olmaydi. Bir hududda investitsiya hajmi yuqori bo'lishi mumkin, ammo aholi jon boshiga investitsiya, eksport, kichik biznes faolligi yoki tashqi kapitalni jalb etish ko'rsatkichlari past bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli statistik ko'rsatkichlarni integral indeksga birlashtirish, natijalarni GIS vositalari yordamida makoniy tahlil qilish va determinantlarni ekonometrik model orqali aniqlash ilmiy jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Namangan viloyati misolida hududiy investitsiya mexanizmlarini integral indeks, GIS-klasterlash va ekonometrik modellashtirish asosida kompleks baholash hamda investitsion faollik darajasiga mos differensial boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi "baholash - makoniy differensiatsiyani aniqlash - determinantlarni baholash - manzilli

boshqaruv qarorini shakllantirish” ketma-ketligini yagona metodologik tizim sifatida asoslash bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI


Hududiy investitsion faollikni baholash bo'yicha ilmiy yondashuvlarni uch guruhga ajratish mumkin: ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan integral baholash, makoniy tahlil va ekonometrik modellash. Integral indekslar turli o'lchov birliklaridagi indikatorlarni yagona mezonga keltirib, hududlarni taqqoslash imkonini beradi. Bunday yondashuv ayniqsa ko'p omilli hududiy jarayonlarni reytinglash va guruhlashda samaralidir.

Makoniy tahlil metodlari investitsion jarayonlarning hududiy konsentratsiyasini va qo'shni hududlar bilan bog'liq tafovutlarini vizual aniqlash imkonini beradi. GIS texnologiyalarining ustunligi shundaki, statistik natija ma'muriy hududlar kesimida xaritaga tushiriladi va boshqaruv qarorlari uchun tez idrok etiladigan analitik vositaga aylanadi. Ekonometrik modellash esa integral indeksdan farqli ravishda investitsiya hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning yo'nalishi va kuchini miqdoriy baholashga xizmat qiladi.

Panel ma'lumotlar bilan ishlashda Pooled OLS, fixed effects va random effects modellari keng qo'llaniladi [5; 6]. Mazkur tadqiqotda mavjud 60 ta kuzatuv uchun retrospektiv bog'liqliklarni aniqlash maqsadida Pooled OLS yondashuvi tanlandi. Metodologiyaning asosiy farqi shundaki, integral indeks va GIS-klasterlash natijalari ekonometrik tahlil bilan bog'lanib, yakunda investitsiya siyosatini differensial segmentlashga olib keladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning empirik bazasi Namangan viloyati tuman va shaharlari bo'yicha 2020-2024-yillarga oid panel ma'lumotlardan shakllantirildi. Ma'lumotlar bazasiga investitsiyalar, ishlab chiqarish, qurilish, eksport, tashqi kapital va kichik biznes faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiritildi. Metodologiya olti ketma-ket bosqichdan iborat bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Hududiy investitsiya mexanizmlarini kompleks baholash algoritmi¹

Investitsion faollikni baholashda ko'rsatkichlar tanlovi hududdagi kapital oqimining miqyosi, intensivligi, tashqi manbalarga ochiqqligi hamda ishlab chiqarish va tadbirkorlik natijalari bilan bog'liqligini qamrab olish tamoyiliga asoslandi. Natijada yettita indikator tanlandi (1-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadval

Hududiy investitsiya faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy mazmuni¹

	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Iqtisodiy mazmuni
1	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	Investitsiya jarayonlarining umumiy ko'lamini ifodalaydi
2	Aholi jon boshiga investitsiyalar	ming so'm	Investitsion faollik intensivligini ko'rsatadi
3	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	mlrd so'm	Tashqi kapitalni jalb etish imkoniyatini tavsiflaydi
4	Qurilish ishlari hajmi	mlrd so'm	Investitsiyalarning infratuzilmaviy natijasini aks ettiradi
5	Sanoat mahsuloti hajmi	mlrd so'm	Ishlab chiqarish bazasi va investitsiya o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi
6	Eksport hajmi	mln AQSh dollari	Hududning tashqi iqtisodiy faolligini tavsiflaydi
7	Kichik biznes subyektlari soni	birlik	Tadbirkorlik muhiti va biznes faolligini ifodalaydi

Tanlangan ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida ifodalanganligi sababli ular maksimal qiymatga nisbatan normalizatsiya qilindi:

$$K_{ij} = \frac{Z_{ij}}{Z_j^{max}} \quad (1)$$

bu yerda K_{ij} - i-hududning j-ko'rsatkich bo'yicha normalizatsiyalangan qiymati; Z_{ij} - i-hududning j-ko'rsatkich bo'yicha haqiqiy qiymati; Z_j^{max} - j-ko'rsatkich bo'yicha kuzatilgan maksimal qiymat.

Keyingi bosqichda normalizatsiyalangan yettita indikatorning oddiy arifmetik o'rtachasi asosida hududning integral investitsion faollik indeksi hisoblandi:

$$I_i = \frac{K_{1i} + K_{2i} + K_{3i} + K_{4i} + K_{5i} + K_{6i} + K_{7i}}{7} \quad (2)$$

Indeksning 1 ga yaqinlashishi hudud investitsion faolligining nisbatan yuqori, 0 ga yaqinlashishi esa past darajasini anglatadi. Mazkur yondashuv hududlarni bir xil o'lchov mezonida taqqoslash imkonini beradi.

2-jadval

Klasterlash mezonlari va GIS-vizuallashtirish

Integral indeks oralig'i	Faollik darajasi	Hududlar
0,80-1,00	Juda yuqori	Namangan shahri
0,65-0,79	Yuqori	-
0,50-0,64	O'rtacha	To'raqo'rg'on, Chust
0,35-0,49	Past	Pop, Mingbuloq

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Integral indeks oralig'i	Faollik darajasi	Hududlar
0,00-0,34	Juda past	Kosonsoy, Namangan tumani, Norin, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on

Integral indeks natijalari hududlarning investitsion faollik darajasini makoniy ko'rinishda tahlil qilish uchun GIS muhitiga ko'chirildi. Bunda har bir hudud tegishli klaster rangiga birlashtirildi va "Namangan Invest GIS Map" geoaxborot-tahliliy xaritasi shakllantirildi.

Ekonometrik model

Hududlardagi investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ko'p omilli Pooled OLS regressiya modeli tuzildi. Natijaviy ko'rsatkich sifatida investitsiyalar hajmi, omil ko'rsatkichlari sifatida aholi jon boshiga investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar, sanoat mahsuloti, eksport hajmi hamda kichik biznes subyektlari soni qabul qilindi.

$$INV_{it} = \beta_0 + \beta_1 Z_{1it} + \beta_2 Z_{2it} + \beta_3 Z_{3it} + \beta_4 Z_{4it} + \beta_5 Z_{5it} + \varepsilon_{it}$$

(3)

TAHLIL VA NATIJALAR


Hisob-kitoblar natijasida modelning baholangan ko'rinishi quyidagicha olindi:

$$INV = -1186.8334 + 0.0160Z_1 + 1.9928Z_2 - 0.1395Z_3 + 11.4278Z_4 + 111.4940Z_5$$

(4)


Integral indeks va hududiy klasterlash natijalari

Hisob-kitoblar Namangan viloyatida investitsion faollikning hududlar bo'yicha sezilarli differentsiatsiyalanganini ko'rsatdi. Namangan shahri "juda yuqori" guruhga kiritildi. To'raqo'rg'on va Chust tumanlari "o'rtacha", Pop va Mingbuloq tumanlari "past", Kosonsoy, Namangan tumani, Norin, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari esa "juda past" investitsion faollik guruhiga kiritildi.



2-rasm. Investitsion faollik klasterlari bo'yicha hududlar taqsimoti

Klasterlar tarkibidan ko‘rinadiki, kuzatilgan hududlarning katta qismi o‘rtacha darajadan past segmentlarda joylashgan. Bu investitsiya oqimlari va investitsion infratuzilma viloyat hududlari bo‘yicha bir tekis shakllanmaganini ko‘rsatadi. Yuqori faollikning Namangan shahrida jamlanishi hududiy markazlashuv mavjudligini bildiradi.



3-rasm. Namangan viloyati hududlarining investitsion faollik darajasi bo‘yicha GIS-klasterlash xaritasi¹

GIS xaritasi investitsion faollikning makoniy nomutanosibligini yaqqol ko‘rsatadi: Namangan shahri alohida yuqori faollik markazi sifatida ajralib turadi, viloyatning ko‘plab tumanlarida esa investitsion faollik past yoki juda past segmentda. Shu jihatdan GIS-klasterlash investitsiya resurslarini hududlar bo‘yicha manzilli yo‘naltirish, ustuvor hududlarni aniqlash va investitsiya siyosati monitoringini tashkil etishda amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

3-jadval

Pooled OLS modeli natijalari²

Ko‘rsatkich	Qiymat
Model turi	Pooled OLS
Kuzatuvlar soni	60
R ²	0,9936
Korrektirovka qilingan R ²	0,9930
F-statistika	1681,0
Prob (F-statistic)	0,0000
Akaike axborot mezoni (AIC)	850,8
Schwarz axborot mezoni (BIC)	863,3
Durbin-Watson statistikasi	1,805

¹ Manba: Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha. Muallif tomonidan ArcGIS dasturida tuzilgan xarita.

² Muallif ishlanmasi

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9936$ ni tashkil etib, tanlangan omillar investitsiyalar hajmidagi kuzatilgan variatsiyaning juda katta qismini izohlashini ko'rsatadi. F-statistikaning 1681,0 va $\text{Prob}(F\text{-statistic})=0,0000$ qiymatlari modelning umumiy statistik ahamiyatligini tasdiqlaydi. Durbin-Watson statistikasi 1,805 ga teng bo'lib, qoldiqlarda keskin birinchi tartibli avtokorrelyatsiya mavjud emasligiga mos keluvchi diagnostik natijani beradi.

Baholangan regressiya tenglamasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar, eksport hajmi hamda kichik biznes subyektlari soni koeffitsiyentlari musbat ishoraga ega. Bu ko'rsatkichlarning oshishi investitsiya hajmining ortishi bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatadi. Sanoat mahsuloti koeffitsiyentining manfiy ishorasi esa mazkur tanlanmada sanoat ishlab chiqarishi va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni qo'shimcha strukturaviy tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi; buni sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo'lish lozim.

Natijalar hududiy investitsiya siyosatini faqat investitsiyalar hajmining mutlaq ko'rsatkichlariga asoslangan holda shakllantirish yetarli emasligini ko'rsatadi. Integral indeks investitsion faollikning ko'p o'ldiruvchi xususiyatini umumlashtiradi, GIS-klasterlash uning makoniy joylashuvini ko'rsatadi, ekonometrik model esa investitsiya hajmi bilan bog'liq determinantlarni aniqlaydi. Ushbu uchta analitik qatlam birgalikda boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslanganligini oshiradi.

Tadqiqotning amaliy jihatdan muhim natijasi hududlarni yagona investitsiya siyosati bilan boshqarish o'rniga ularni faollik darajasiga ko'ra segmentlash zarurligidir. Namangan shahrida mavjud yuqori investitsion faollikni innovatsion, texnologik va eksportbop ishlab chiqarishlar tomon yo'naltirish maqsadga muvofiq. To'rao'rg'on va Chustda mavjud sanoat bazasini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va eksport zanjirlarini kengaytirish investitsion faollikni yuqori segmentga olib chiqishi mumkin.

Pop va Mingbuloq tumanlarida kreditlash, kafolat va investitsiya loyihalarini tayyorlashga ko'maklashuvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Juda past faollik guruhidagi hududlar uchun esa umumiy viloyat dasturlaridan tashqari alohida "investitsion faollashtirish dasturi"ni ishlab chiqish, tumanlarning resurs salohiyati va infratuzilma cheklovlarini alohida hisobga olish taklif etiladi.

Taklif etilgan metodologiya uchun kuchli tomoni integral, makoniy va ekonometrik tahlilni yagona qaror qabul qilish zanjiriga birlashtirishidir. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Birinchidan, integral indeksda indikatorlar teng vazn bilan hisoblangan. Keyingi tadqiqotlarda entropiya, AHP yoki ekspert baholash usullari orqali differensial vaznlarni aniqlash mumkin. Ikkinchidan, Pooled OLS modeli hududga xos kuzatilmaydigan individual effektlarni alohida hisobga olmaydi; kelgusida fixed effects, random effects va fazoviy panel modellar bilan solishtirish metodologiya barqarorligini tekshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida hududiy investitsiya mexanizmlarini baholashning "statistik indikatorlar - normalizatsiya - integral indeks - GIS-klasterlash - ekonometrik

diagnostika - differensial investitsiya siyosati” ketma-ketligiga asoslangan kompleks metodologiyasi taklif etildi.

Namangan viloyati misolida investitsion faollikning sezilarli hududiy tafovutlari aniqlandi: Namangan shahri juda yuqori, To‘raqo‘rg‘on va Chust o‘rtacha, Pop va Mingbuloq past, qator tumanlar esa juda past faollik segmentiga kiritildi. Mazkur holat investitsiya siyosatini bir xil mezon asosida emas, hududning real investitsion holatiga mos ravishda differensial shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ekonometrik tahlil tashqi kapital, eksport va kichik biznes faolligi investitsiyalar hajmi bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu sababli hududiy investitsiya siyosatida xorijiy kapitalni jalb etish, eksport zanjirlarini rivojlantirish, kichik biznes uchun moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaxshilash ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim.

Amaliy boshqaruv nuqtai nazaridan “Namangan Invest GIS Map”dan investitsiya loyihalarini joylashtirish, hududiy dasturlarni monitoring qilish va resurslarni manzilli taqsimlashda foydalanish taklif etiladi. Juda past investitsion faollikka ega hududlarda alohida faollashtirish dasturlari, o‘rtacha hududlarda sanoat va eksport drayverlari, yuqori faollik markazlarida esa innovatsion va yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNCTAD. World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. Geneva: United Nations, 2025.
2. OECD. FDI Qualities Policy Toolkit. Paris: OECD Publishing, 2022.
3. World Bank. World Development Indicators. Washington, DC: World Bank.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Investments and Construction: January-December 2024. Toshkent, 2025.
5. Wooldridge, J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. MIT Press.
6. Baltagi, B.H. Econometric Analysis of Panel Data. Wiley.
7. Greene, W.H. Econometric Analysis. Pearson.
8. Anselin, L. Spatial Econometrics: Methods and Models. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-598, 25.12.2019.
10. Namangan viloyati hududlarining 2020-2024-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va investitsion ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar.
11. Kenjayev I.E. Hududlarni rivojlantirishda investitsiya mexanizmlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot materiallari.
12. Muallifning Namangan viloyati hududlari investitsion faolligini integral baholash, GIS-klasterlash va ekonometrik modellashtirish bo‘yicha hisob-kitoblari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**